




## TOSHKENT ELINING AZIZ FARZANDI



Jo`raqulova Elnora Jo`rabek qizi

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

Aviatsiya transporti muhandisligi 3-bosqich talabasi

[juraqulovaelnora102@gmail.com](mailto:juraqulovaelnora102@gmail.com)*Toshkentni sevmoqlig yurakning ishi,**Shu uchun shartmikan bunda tug`ilmoq!**Shartmi, bir romanga ishqiboz kishi**O`zi u romanga qahramon bo`lmoq!**Maqsud**Shayxzoda*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Nizomiy vatanida tug`ilgan Maqsud Shayxzoda falakning gardishi bilan o`zbek diyoriga kelib qolishi , hayotining achchiq, baxthi kunlarini shu yerda o`tkazishi haqida yoritib beriladi.

**Kalit so`zlar:** shoir, asar, she`riyat, ozarbayjon-o`zbek aloqalari.

**Annotation:** This article tells about Maksud Sheikhzoda, who was born in Nizami's homeland, came to the Uzbek land and spent the bitter and happy days of his life here.

**Keywords:** poet, essay, poetry, Azerbaijani-Uzbek relations.

Ozarbayjon o`lkasi Agtash shahri Ma'sumbeklar oilasida bir bola dunyoga keldi. U bolaning ismi Maqsuddir. Maqsud Shayxzodaning otasi Ma'sumbek o'z zamonasining taraqqiyatidan bo`lib , meditsina ilmlaridan tashqari,



san'at, adabiyot, tarix va falsafa ilmlari bilan qiziqqan. Onasi Fotimaxonim zamonaviy ilm-fan asoslarini egallagan, ozarbayjon xotin-qizlarining peshqadam vakilasi edi.

Ma'sumbekning uyi zamonasining madaniy, adabiy markazi bo`lib, shaharning ziyyolilari Shayxzodalar uyiga yig`ilar va turli munozaralar olib borar edi. Bu adabiy muhit uchun Pushkin, Lermantov, Shekspir, Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy asarlaridan o`qilar edi. Bo`lajak shoir-Maqsd Maqsud Shayxzoda bu adabiy munozaralardan ko`p bahra olgan. Maqsud Shayxzodaning adabiyot sohasida ketishiga sabab ham shunday adabiy muhit turtki bo`lgandir balki.

Shayxzoda boshlang`ich mакtabni tugatib 1921-yil oxirlarida o`qishni davom ettirish niyatida Bokuga yo`l oladi. 1925-yil Boku Oliy pedagogika bilim yurtini a`lo baholar bilan tugatgan Maqsud Shayxzodani Ozarbayjon Maorif xalq komissarlarining yo`llanmasi bilan Darbandga yo`l oladi. Maqsud Shayxzoda Darband Shahridagi 1-bosqich maktablardan birida turk tili va adabiyotidan dars bergen. Shayxzoda o`qituvchilik bilan chegaralanib qolmay, Bo`ynoqda nashr qilingan “Maorify yo`li”, Bokuda chiqarilgan “Kommunist” gazetalariga xabar, she`r va maqolalar yuborib turgan. Shayxzoda Dog`istonda kechgan qisqa hayoti davomida ham muallim, ham shoir, ham jurnalist sifatida namoyan bo`lgan.

1927-yil 6-dekabrda aksinqilobiy tashkilot a`zosi sifatida Maqsud Shayxzoda hibsga olinadi va 1928-yil Shayxzodaga nisbatan 3 yillik surgun e`lon qilinadi. Shayxzoda Moskva, Tiflis va Bokudan boshqa shahrlarda surgun muddatini o`tashi mumkin edi. Shayxzoda ota-onasining maslahati bilan surgungoh sifatida Toshkentni tanlaydi. 1928-yil fevral oyining oxirlarida Toshkentga keladi. 3 yil o`tib o`z yurtinga qaytib ketaman deb o`ylagan Shayxzoda o`zbek elining jondan aziz farzandi bo`lib qoldi. Shayxzoda Toshkentga kelgach turli gazeta va jurnallarda o`z faoliyatini olib bordi.

Maqsud Shayxzoda O`rta Osiyo Davlat universitetida oz vaqt o`qiydi (1928-1929), keyin “Sharq haqiqati” gazetasi tahririyatida tarjimon bo`lib xizmat qila boshlagan. Shayxzoda gazetada qisqa muddat ishlagan, shu qisqa vaqt ichida o`zbek tilini qunt bilan o`rgangan. 1929-yil Shoirning o`zbek tilidagi ilk “Traktor” sarlavhali she’ri e’lon qilindi. Bu she’r shoirning o`zbek tilidagi ilk she’ri edi. Shu vaqt dan boshlab umrining so`ngiga qadar o`zbek adabiyoti ravnaqi uchun ter to`kib, adabiyotimiz xazinasini she’r va dostonlar, drama va tarjimalar bilan boyitdi.

Shayxzodaning o`zbek o`lkasidagi hayoti sekin-asta izga tushib, ijodi porlay boshladi. Shoirning “O’n she’r”, “ Undoshlarim”, “Uchinchi kitob” ,“Jumhuriyat” she’riy to`plamlari nashr etildi. Shoir bu she’rlari bilan o`zbek kitobxonlarining qalbidan joy oldi. Maqsud Shayxzoda o`zbek diyoriga atab yozgan “Toshkentnoma” dostonida bu yurting qadim kuhna tarixi, bog`u bo`stonlari, mehmondo`stligi haqida kuylagan. Shoir o`zining dostoni orqali xalqimizning mehnat sevarligi, bardoshliligi boshiga og`ir sinov kelganda ham mardona tura olishini aytib o`tgan. O`z vatandoshlariga nafaqat boshqa ellatlarga ham mehr ko`rsatishini tasvirlagan.

*... Bola desa xotirlanar bolajonlilar,*

*Bolalarga g`amxo`rlilar, mehribonlilar.*

*Men toshkentlik temirchiga aytaman: - Rahmat!*

*O`n to`rt bola asrab olgan Shoahmad aka...*

*A, mehribon Bahri opa, sen chekib zahmat,*

*O`z bolangday mehr qo`yding o`n to`rt o`ksizga.*

*O`n to`rt bola, o`n to`rt millat, turli o`n to`rt ot,*

*Shoahmadning farzandi deb tanilgan avlod.*

*Bu gulzorlar, bu hovuzlar, bog`lar-bog`chalar*

*Allanelar eslatadi bu keng ko`chalar....*

Shoir urush yillarini xotirlab Toshkentlik temirchi Shoahmad aka va rafiqalari Bahri opaning bag`ri kengligi , mehribonligi, o`zga millat o`zga el farzandlarini o`z farzandidek bag`riga olganliklariga tashakkurlar aytadi.

Kim ham o`ylabdiki ozor xalqining farzandi o`zbek diyoriga kelib, u xalqning o`z farzandidek bo`lib ketishini . O`zbek millatining tilini, qadriyatlarini, urf-odatlarini o`rganib shu yurtda ijod qildi. O`zbekistonga bag`ishlab she'r, dostonlar yaratdi. Maqsud Shayxzoda el suygan shoirlardan edi. Shayxzoda bu olamni tark etganiga 58 yildan ko`p vaqt o`tibdi. Shoir o`zi aytganidek, hamon o`z so`zlari, asarlari bilan tirik.

*Agar bog`lar gullasa, demak, bog`bon o`lmapti,*

*Agar charog` porlasaha... Charog`bon o`lmapti,*

*Agar qanot qoqlisa, demak, shunqor o`lmapti,*

*Agar g`azal yozilsa, demakki, yor o`lmapti,*

*Shirillasa gar suv, demak, mirob o`lmapti*

*Agar bo`lsa kitibxon, demak kitob o`lmapti...*

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Naim Karimov, Maqsud Shayxzoda: Ma'rifiy-biografik roman.-T.: "Sharq" nashriyoti 2009.
2. Maqsud Shayxzoda, Dunyo boqiy: She'rlar. Dostonlar. Dramalar.- T.: "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1998.
3. Elektron pochta: [Maqsud Shayxzoda. Toshkentnoma. Doston. | Xurshid Davron kutubxonasi](#)